

Moliya bozori va unda tijorat banklarining o'rni

G.Zulhaydarova
TFI

Annotatsiya: Maqolada moliya bozorida tijorat banklarining faoliyatining ahamiyati, asosiy yo'naliishlari, sohada mavjud muammolar va ularning echimlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, tijorat banklari, emitetnt

Financial market and the role of commercial banks in it

G.Zulhaydarova
TFI

Abstract: The article describes the importance of the activity of commercial banks in the financial market, the main directions, existing problems in the field and their solutions.

Keywords: financial market, stock market, commercial banks, issuer

Hozirgi kunda, moliya bozorini tijorat banklari tomonidan investitsiya va emission faoliyatini rivojlantirish bir maromda va xatarsiz muomalada bo'lishi uchun mazkur sohaga oid qonuniy me'yorlarni davr talablari darajasida ishlab chiqish hamda ularni doimiy ravishda takomillashtirib borishni, oddiy fuqarodan tortib, to davlat organlarigacha qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari tomonidan qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishni o'zida uyg'unlashtiruvchi tizim zarur hisoblanadi. Jaxon tajribasi, shuni ko'rsatmoqdagi iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, tijorat banklari modernizasiya qilish va tijorat banklarini investitsiya va emission faoliyatini rivojlantirish bugun kunning dozarb masalalari biri hisoblanadi. masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zarurligini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarini investitsiya va emission faoliyatini rivojlantirish o'ziga xos xususiyati ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiyotdagi investitsion jarayonlarni yanada jadallashtirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va korxonalarini modernizasiyalash, texnik va texnologik yangilashni rag'batlantirish hamda innovasion rivojlanishni ta'minlashda bank xizmatalaridan foydalanish ko'lamlarini kengaytirish rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston

Respublikasi bank-moliya rivojlantirish tizimida investitsiya banklarini tashkil qilish usullari, vositalari va mexanizmlarini ishga solish yo'llarini ishlab chiqish, qimmatli qog'ozlar bozorini samarali tartibga solish uchun mavjud qonuniy-me'yoriy xujjatlarga o'zgartirishlar kiritish, fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish, ishtirokchilar faoliyatini yuritishda va tashkil etishda yangi iqtisodiy normativlarni qo'llash, o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar faoliyatlarini takomillashtirish kabi vazifalarni amalga oshirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorining davlat tomonidan tartibga solishning eng muhim usullaridan biri - bu qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishda ularning ro'yxatdan o'tkazilishi hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar harakatining ushbu bosqichida tartibga soluvchi organ qimmatli qog'ozlar emissiyasi aniq investitsion loyiha asosida amalga oshirilayotanligiga, sarmoyadorlaring mablag'lari samarali, oldindan ishlab chiqilgan biznes - rejaga muvofiq sarflanishiga va keyin foyda keltirishiga ishonch hosil qilishi kerak. Aynan emissiyani ro'yxatga olish chog'ida tartibga soluvchi organ tovlamachilikning oldini olish maqsadida emitentning faoliyatini oldindan nazorat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish nuqtai nazardan tartibga solishni davlat va professional ishtirokchilarga bo'lish eng maqsadga muvofiq usul sanaladi deb ta'kidlagan. Bunday taqsimotga muvofiq qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishning bir nechta asosiy modellari mavjud. Birinchi model, qimmatli qog'ozlar bozorini asosan davlat idoralari tomonidan tartibga solinishi va bunday tartibga solish bo'yicha vakolatlarning kichik qismini o'zini-o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarga (SRO) berilishini nazarda tutadi (Fransiya). Ikkinci model, aksincha, fond bozorini tartibga solish bo'yicha mavqeining eng katta hajmi o'zini-o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarga (SRO) berilishini nazarda tutadi, bunda davlat faqat asosiy nazorat qilish vakolatini saqlab qoladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning so'ngi bosqichi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda yangi bosqich bo'ldi. Endilikda qimmatli qog'ozlar bozoriga alohida e'tibor berila boshlandi. Jumladan fond birjasni, ya'ni qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori tashkil qilindi. Fond bozori infrastrukturasini jadal sur'atlar bilan tashkil qilish maqsadida investitsiya kompaniyalari va fondlari, kliring palatalari va fond do'konlari, reklama firmalari va XIFlar (xususiy investitsiya fondlari) shakllantirildi

O'zbekiston banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki juda zaif hisoblanadi, buni banklarning aktivlari tarkibida investitsiyalar ulushi 1,5 foizni tashkil etishidan ham ko'rishimiz mumkin. Biroq, tijorat banklari mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari ichida eng faollari hisoblanib, buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarining tutgan o‘rnini¹

Ko‘rsatkich-lar	01.01.2016y.		01.01.2017y.		01.01.2018y.		01.01.2019y.		01.01.2020y.	
	mlrd. sumda	% da								
Jami birja savdolari hajmi	161	100	299,8	100	298,6	100	687,3	100	438,8	100
Banklar	141,4	87,8	151,7	50,6	257,6	86,3	591	86	319,5	72,8

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz fond birjalarida qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan savdo aylanmalarining 70 foizdan yuqorisi tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston bank tizimining investitsiya operasiyalarini ayrim asosiy ko‘rsatkichlarga (mamlakat YaIMga, bank tizimi aktivlariga, kreditlariga) nisbati berilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operasiyalarining hajmi mamlakat YaIMga nisbati tahlil etilayotgan davrda 2,0 foizga ham yetmayapti.

O‘zbekiston tijorat banklarining investitsion operasiyalari amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, banklar jami aktivlari tarkibida investitsion operasiyalar ulushining sezilarsiz darajada bo‘lishi bilan birga, ushbu operasiyalarning yillik o‘sish sur’atlari ham bankning jami aktivlari tarkibida o‘ta beqaror va past darajani tashkil etmoqda. Ta’kidlash joizki, ayrim banklarda o‘ta yuqori darajada o‘sib ketgan davrlar ham bo‘lgan. Biz dissertasiya tadqiqoti doirasida ayrim tijorat banklarining aktivlari tarkibini tahlili asosida tijorat banklari investitsiyalarining yillik o‘sish hajmi ularning aktivlari yillik o‘rtacha o‘sish ko‘rsatkichidan kam bo‘lmagan darajada bo‘lishi maqsadga muvofiqdir degan xulosaga keldik.


Mamlakatimiz tijorat banklari jami resurslari tarkibida muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlari hisobidan shakllantirilgan moliyaviy resurslar, tahlil etilayotgan davr mobaynida juda zaif bo‘lib, faqatgina 2020 yil 1 yanvar holatiga 1,3 foizni tashkil etgan, unga qadar bo‘lgan yillar davomida ushbu ko‘rsatkich bundan ham past darajada bo‘lgan.

MDH mamlakatlari qimmatli qog‘ozlar bozori savdo aylanmalarining YaIMga solishtirib ko‘radigan bo‘lsak O‘zbekistonda 1,2%, Qog‘og‘istonda 1,5%, Qirg‘izistonda 1,1%, Rossiyada 5,4% dan iborat ekanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar bozori savdo aylanmalarining ishtirokchilari sifatida MDH mamlakatlarida, xususan O‘zbekistonda ham asosan banklar hisoblanadi. Masalan mamlakatimiz fond birjasida 2019 yilda qimmatli qog‘ozlar bozori savdo aylanmalari jami 438,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shuning qariyib 319,5 mlrd so‘mi yoki 72,8 foizi tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

¹ “Qimmatli Qog‘ozlar Markaziy Depozitarisi” davlat korxonasi veb sahifasi (Deponet.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

O‘zbekiston tijorat banklari mamlakatimiz qimmatli qog‘ozlar bozoridagi savdo aylamanlari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsada, bizning fikrimizcha bu ular uchun yetarli emas, chunki xorij amaliyoti, shuningdek, ayrim MDH mamlakatlari banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operasiyalarining hajmi bilan solishtiradigan bo‘lsak bu ko‘rsatkich judayam zaif holatda ekanligining guvohi bo‘lamiz.



1-rasm. 2022 yilda moliya bozorida sohalar kesimida tuzilgan bitimlar soni², dona

2022 yilda iqtisodiyotning 10 ta turli xil soha aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlari bilan birja savdolari amalga oshirildi. Eng ko‘p bitimlar bank va sanoat sektorlari emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshirildi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan 26 042 ta bitim tuzildi, bu birja bitimlari umumiyligi sonining 32,26 foizini tashkil etdi. Sanoat tarmog‘idagi 9 ta emitentlarning qimmatli qog‘ozlari bilan 21 247 ta bitim tuzildi (birja bitimlari umumiyligi sonining 26,32 foizi).

2-jadval

2022 yilda O‘zbekiston moliya bozorida tijorat banklari faoliyatining natijalari³

Soha	Bitimlar soni dona	Qimmatli qog‘ozlar soni, dona	Bitimlar hajmi, so‘m
Agrosanoat	1 167	26 798 365	237 928 504 872,21
Banklar	26 042	3 483 679 451	2 308 673 636 135,70
Lizing	37	16 287	15 115 403 190,00
Sanoat	21 247	5 695 260	53 962 415 359,26
Boshqalar	10 574	1 629 626 626	169 307 976 737,39
Aloqa	327	22 539	69 288 268,95
Sug‘urta	2 586	30 996 280 411	87 131 618 128,52
Qurilish	14 628	10 254 180	1 924 353 299 577,87
Transport	84	82 573	18 089 702,17
Energetika	4 031	2 304 490	19 647 186 828,40

Birja operatsiyalari umumiyligi hajmining 47,94 foizi bank sektori qimmatli qog‘ozlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Ushbu soha emitentlari bilan tuzilgan bitimlarning

² 2022_yil_bo'yicha_birjaviy_tahlil.pdf (uzse.uz)

³ 2022_yil_bo'yicha_birjaviy_tahlil.pdf (uzse.uz)

umumiyligi 2,31 trillion soʻmni tashkil etdi. Qurilish sektori emitentlarining qimmatli qogʼozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 1,92 trillion soʻmni tashkil etdi va bu umumiyligi birja hajmining 39,96 foizini tashkil etdi. Aksiyadorlik jamiyatlarining agrosanoat va boshqa tarmoqlardagi qimmatli qogʼozlari bilan tuzilgan bitimlar mos ravishda 237,93 mldr soʻm va 169,31 mldr soʻmni tashkil etdi. Eng kam miqdordagi bitimlar aloqa va transport sohasidagi qimmatli qogʼozlar bilan tegishli ravishda 69,29 mln va 18,09 mln soʻmlik bitimlar tuzilgan.

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimi tajribasidan, jumladan, Xitoy sanoat va tijorat banki hamda Rossiya Sberbankining qimmatli qogʼozlar bozoridagi investitsion va emission operasiyalarining natijalariga tayanib quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

- qimmatli qogʼozlarga qilingan investitsiyalarning daromadlilik darajasi past boʻlsada bank majburiyatlarni zudlik bilan bajarish ehtiyoji boʻlganda ularni qimmatli qogʼozlar bozorida cotish imkoniyatiga ega boʻladi, chunki ular yuqori likvidli qimmatli qogʼozlarga joylashtirilgan;

- emissiya hajmining pastligining asosiy sababi passiv operasiyalarining ushbu manbasi juda qimmat boʻlib, muddatli depozitlarga nisbatan deyarli ikki baravar yuqoridir (macalan Xitoy sanoat va tijorat bankida emissiya qilingin qimmatli qogʼozlarning oʻrtacha foiz stavkaci 3,56%, muddatli depozitlarniki 1,59%), biroq uzoq muddatli va jalb qilish imkoniyatlari yuqori boʻlganligi bois, bank ushbu instrument hicobidan ham maʼlum darajada moliyaviy resurslarini shakllantirishga eʼtibor qaratgan va bankning majburiyatlarini shu yoʻl bilan diversifikasiyalagan.

Respublikamizda tijorat banklarining qimmatli qogʼozlar bozoridagi operasiyalarini boʻyicha xulosa qiladigan boʻlsak, mamlakatimiz fond birjalarida qimmatli qogʼozlar bilan amalga oshiriladigan savdo aylanmalarining 70 foizdan yuqorisi tijorat banklari hiccaciga toʻgʻri keladi. Ular fond birjasida asosan investitsion va emission operasiyalarini amalga oshirishadi. Rivojlangan mamlakatlar banklari balancini tahlil qilish natijacida ayon boʻladiki, mamlakatimiz tijorat banklarining investitsion faoliyati qoniqarciz holatda boʻlib, ular ushbu oprasiyalar orqali aktivlarni diversifikasiyalash va risklarni pasaytirish imkoniyatlaridan samarali foydalanmayapti, buning qator cabablari boʻlib, ularning asosiyalarini mamlakatda qimmatli qogʼozlar bozori infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan, shu bilan birga banklarning ushbu bozordagi majburiyatlar va huquqlarini himoya qiladigan meʼyoriy-huquqiy bazaning sifatlari asosi yaratilmagan.

Respublikamiz bank amaliyotida tijorat banklarining qimmatli qogʼozlar bilan operasiyalarini amalga oshirish hamda hamda uni takomillashtirishda quyidagi jihatlarga eʼtibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

1. Tijorat banklarining korporativ qimmatli qogʼozlarga qilinadigan investitsiyalarini hajmini oshirish maqsadida, birinchidan, korporativ qimmatli

qog‘ozlarning fundamental va texnik tahlilini takomillashtirish kerak; ikkinchidan, transaksion depozitlarning barqaror qoldig‘ini korporativ qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirish lozim; uchinchidan, banklarning korporativ qimmatli qog‘ozlardan oladigan daromadlari foyda solig‘idan ozod qilinishi zarur.

2. Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar portfelining sifatini ta’minlash maqsadida, birinchidan, qimmatli qog‘ozlar portfelining diversifikasiya prinsipini buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim; ikkinchidan, qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning o‘sish sur’atini qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning o‘sish sur’atidan ortda qolmasligini ta’minlash zarur.

3. Tijorat banklarining depozit sertifikatlari rivojlangan davlatlarda boshqa depozitlarga nisbatan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, AQShda depozit sertifikatlari qimmatli qog‘oz hisoblanib, birjada oldi-sotdi ob’ekti sifatida foydalaniladi. Yaponiyada qimmatli qog‘oz sifatida ishlatilib, garov sifatida ham olinishi mumkin. Mamlakatimiz bank amaliyotida depozit va jamg‘arma sertifikatlari noemissiviyl qimmatli qog‘oz hisoblanib, qat’iy stavkalarda foiz to‘lanadi. Depozitning ushbu shaklini o‘ziga xosligi shundaki, uni emissiya qilish natijasida jalb qilingan resurslar majburiy zaxiraga tortilmaydi. Shunga qaramay hozirgi kunda ushbu depozit shaklidan mamlakatimiz tijorat banklari deyarli foydalanmayapti. Shuningdek, mamlakatimizda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorining yaxshi rivojlanmaganligi, davlat qimmatli qog‘ozlarining mavjud emasligi, aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘z pul mablag‘larini yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlarga yo‘naltirish imkonini cheklemoqda. Natijada, mablag‘ egalari o‘z pullarini ko‘chmas mulk, avtomobil, tilla buyumlar, xorijiy valyuta va boshqa turdag'i aktivlarga yo‘naltirmoqda. Bu, o‘z navbatida, bankdan tashqari pul mablag‘lari hajmini oshishiga, bank depozitlarining kredit qo‘yilmalariga nisbatan ulushini keskin pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

4. Mamlakatimiz tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emission operasiyalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning nominal bahosi doimiy ravishda deyarli o‘zgarmasdan, ularning bozor bahosi shakllanishi imkoniyatini bermayapti. Buning natijasida, tijorat banklari ustav kapitalining miqdorini oshirish uchun ular doimiy ravishda qo‘sishma aksiyalarni muomalaga chiqarishga majbur bo‘lmoqda. Buning asosiy muammosi shundaki, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar bozordagi bahosining oshmasligi ularning qo‘sishma kapital manbasini jalb qilish va miqdorini oshirish imkoniyatni bermayapti. Xususan, tijorat banklari hisobotlarida qimmatli qog‘ozlarning balans qiymati va bozor qiymati o‘rtasida umuman farqning vujudga kelmasligidan xulosa qilish mumkinki, moliya bozorida qimmatli qog‘ozlar bozoriga talab va taklifning deyarli ta’siri mavjud emasligi ularni qayta baholashga zaruriyat tug‘dirmaydi, bu holat ham tijorat banklari qimmatli qog‘ozlari bozoridagi ishtiroki bilan bog‘liq iqtisodiy

manfaatdorligini pasaytiradi. Bizning nazarimizda, mazkur masalaning yechimi mahalliy va xorijiy investorlarning mamlakat moliya bozorlariga, shu jumladan, banklarning qimmatli qog‘ozlariga ishonchini oshirish maqsadga muvofiq, bu albatta inflyatsiya darajasini tushirish, qimmatli qog‘ozlar bahosining barqarorligini ta’minlash va bank qimmatli qog‘ozlari zarurlik darajasini oshirishni talab etadi.

5. Banklarining investitsion operasiyalari hisobidan oladigan daromadlari kreditlar hisobidan oladigan foiz to‘lovlariga nisbatan past, emission operasiyalari bo‘yicha xarajatlar muddatli depozitlarga to‘lanadigan to‘lovlar hajmidan yuqori bo‘lsada, banklar ushbu operasiyalarni bajarishi aktivlarni diversifikasiya qilish, barqaror va uzoq muddatli daromad olib turish, kutilmagan hollarda likvidlilik bilan bog‘liq muammoni hal qilish, qimmatli qog‘ozlarning garovi ostida kredit berish, kompaniya yoki firmalarning mulkiga egalik qilish imkoniyatini yaratadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi PF -5992 sonli Farmoni, 12.05.2020 yil
2. “Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi 1885-yo‘riqnomma 2008 yil 13 dekabr
3. “Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalari” 2009 yil 30 avgust
4. “Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchi va investitsiya konsultanti sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar to‘g‘risida”gi 1782-nizom 2008 yil 2 aprel
5. Abdullaev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD – MOLIYA”, 2009 y.
6. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TMI, 2003.–305 b.
7. Abdullaeva Sh.Z. Pul kredit va banklar. – T.: IQTISOD-MOLIYA. 2007y.
8. Alimov I.I. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari. O‘quv qo‘llanma. T.:TDIU. 2007
9. SHERALI SULTONOV, SHERZOD ALILOV, JASUR RAZZAKOV, KHUSAN ISAEV. DEVELOPMENT WAYS OF STOCK MARKET IN UZBEKISTAN (IN THE CASE OF “TASHKENT” REPUBLICAN STOCK EXCHANGE). Journal of Critical Reviews.2020
10. Sherali Sultonov Nuraliyevich, Nodira Soatova Bobokhanovna. Ways of Fund Market Development in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald.2022
11. Sherali Sultonov. Directions of state regulation of the stock market. International Journal of Economic Growth and Environmental. 2021

12. Sherali Sultonov, Nodira Soatova. Factors strengthening the tax base of local budgets. Journal of Hunan University. Vol. 49. No. 12 December 2022
13. Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009
14. G.G. Nazarova, N.X.Xaydarov, M.T.Akbarov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - T.: MChJ "RAM-S", 2007
15. ТС Маликов, НХ Хайдаров. Молия: умумдавлат молияси. Тошкент:«IQTISOD-MOLIYA», 2009
16. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
17. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009
18. Мутабар Жураевна Темирханова, Хусан Баходирович Зарипов, Ли Шаоминъ. Совершенствование цифровой мобильной связи в современном мире. Бюллетень науки и практики, 2020
19. УЮ Ўроқов, ФШ Сулаймонов. Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятида электрон ахборот алмашишнинг аҳамияти ва уни такомиллаштириш масалалари. 2014/9
20. Uchqun Yunusovich O'roqov, Odiljon Sheraliyevich Olimboyev. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. Science and Education, 2022
21. Uchqun Yunusovich O'roqov, Nozimaxon Jahongir qizi Rahimova. INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINING AHAMIYATI. RESEARCH AND EDUCATION.2022